

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINI KASB-HUNARGA O‘RGATIB TAYYORLASH MEHANIZMLARI

Xudayberganov Raxmatjon Baxtiyorovich

Muallif: Urganch Ranch texnologiya universiteti

Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish va tayyorlash jarayoni jamiyatda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan, bilimli va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. Ushbu jarayon o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan boyitish, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Bu borada ”Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2021 yildagi 792-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarorlari ijrosi ta’minlanib kelmoqda. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun bir qancha mexanizmlarni qo‘llashni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Ta’lim dasturlarini optimallashtirish, kasbiy yo‘naltirish xizmatlari, ish beruvchilar bilan hamkorlik, Innovatsion usullarni qo‘llash, ota-onalar va keng jamoatchilikni jalb qilish, grantlar va stipendiyalar, amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish, mexanizmlar.

Yuqori sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish va tayyorlash jarayoni jamiyatda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan, bilimli va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi mexanizmlarni qo‘llash mumkin:

Ta’lim dasturlarini optimallashtirish

1. O‘quv dasturlariga kasb-hunarga yo‘naltirilgan fanlarni kiritish.

Tanlangan kasb yo‘nalishiga mos amaliy mashg‘ulotlarni taqdim etish.

O‘quvchilarni kelajakdagi kasb bilan tanishtiruvchi kurslar va darslarni tashkil etish.

2. Kasbiy yo‘naltirish xizmatlari

O‘quvchilarga kasblar haqida ma’lumot beruvchi seminar va treninglar o‘tkazish.

Psixologik testlar yordamida o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash.

Mutaxassislar bilan uchrashuvlar va kasbiy faoliyat bo‘yicha maslahat xizmatlari.

3. Ish beruvchilar bilan hamkorlik

Korxonalar, tashkilotlar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

O‘quvchilarni amaliyotga yuborish orqali real ish sharoitlari bilan tanishtirish.

Ish beruvchilar bilan birgalikda o‘quvchilarning kasbiy malakasini oshirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish.

4. Innovatsion usullarni qo'llash

Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanib, masofaviy kasbiy ta'limni yo'lga qo'yish.

Kasb-hunar o'rgatishda virtual haqiqat va simulyatorlardan foydalanish.

Zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar va vositalarni joriy etish.

5. Ota-onalar va jamiyatni jalb qilish

Ota-onalar bilan kasbiy yo'naltirish bo'yicha seminar va suhbatlar o'tkazish.

Mahalla va jamoa tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

6. Monitoring va baholash tizimi

O'quvchilarning kasbiy malakalarini baholash uchun sertifikatlash tizimini joriy etish.

Mehnat bozorining talablari asosida o'quv dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish.

O'quvchilarning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlash ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

7. Grantlar va stipendiyalar

O'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan grant va stipendiya dasturlarini tashkil etish.

8. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus mukofot tizimini joriy etish.

Bu mexanizmlar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki real ish ko'nikmalarini ham egallash imkonini beradi va ularning kelajakdagi mehnat faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatimizda yoshlarni kasbga yo'naltirishning amaldagi tizimi yosh xodimlarning raqobatbardoshligini doimiy oshirish nuqtai-nazaridan jamiyatning intellektual salohiyatini innovatsion rivojlantirishni ta'minlamaydi. O'zbekiston aholisini kasbiy yo'naltirish tizimi sub'ektlarining yetarli darajada samarali muvofiqlashtirilmaganligi mamlakatning mehnat salohiyati hamda undan foydalanish darajasi o'rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Institutsional yondashuvning asosiy tarkibiy qismi sifatida yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimini to'g'ri me'yoriy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning afzalliklarini hisobga olish yoshlarning kasbiy o'zini-o'zi belgilash va kasbga yo'naltirish konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Yoshlarini kasbga yo'naltirishning samarali tizimi maktab bitiruvchilarini kasb tanlash imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilish, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga yoshlar mehnat yarmarkalarini tashkil etish kafolatlarini hamda ko'p bosqichli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini bir necha bosqichda olib boeish maqsadga muvofiq. Shu asnoda bu yo'naltirishni darajama daraja oshirib boorish lozim. Jumladan o'quvchi shaxsi ilk maktab yoshi davridanoq qaysi kasb egasi bo'lishi uning harakter xususiyati, o'yin yoki mashg'uloti jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchi jamoada liderlikni egallab turgan bo'lsa uni davlat muassasa yoki tashkilotida ishlashi ko'proq foizni beradi. Aksincha, bolalar hunarga ko'proq qiziqsa, jumladan, qizlar tikish-bichish, shirinliklar salat, ovqatlar pishishga oshiqsalar, o'g'il bolalar esa kulolchilik, qurilish asboblardan o'yin jarayonida ko'proq foydalansa ular hunarmand bolib yetishishadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Yoshlarni kasbiy yoʻnaltirish va kasbiy oʻzini-oʻzi belgilashni boshqarishning yagonatizimi bir vaqtning oʻzida ishsizlikni tartibga solish uchun moʻljallangan. Xususan, “yoshlarni kasbga yoʻnaltirish” tushunchasi imtiyozlar va qobiliyatlar oʻrtasidagi optimal muvozanatga erishish maqsadida yoshlarning kasbiy oʻzini-oʻzi belgilashga boshqaruv taʼsirining koʻpfunksiyali, murakkab va uzluksiz jarayoni sifatida talqin etiladi. Yoshlarni kasbga yoʻnaltirish tizimining tuzilmasini aniqlab berdi. Yoshlarning xulq-atvori va faoliyatining ichki regulyatorlariga taʼsir qiladi. Agar kasbga yoʻnaltirish tizimi samarali ishlayotgan boʻlsa, yosh shaxs oʻzining shaxsiy imkoniyatlari, sogʻligʻi holati, qiziqishlari va iqtisodiyotning kadrlarga boʻlgan ehtiyojiga mos keladigan kasbni tanlaydi. Yoshlarni kasbga yoʻnaltirishning davlat konsepsiyasi iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yuqori darajadagi professionallikni hurmat qilishning norasmiy institutlarini oʻz ichiga olishi kerak. Respublikamizdagi 10 mingdan ortiq maktablarda faoliyat olib borayotgan sinf rahbarlari ham oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishda quyidagi vazifalarni bajaradi: - hayotning oʻzini-oʻzi belgilashning muhim qismi sifatida oʻquvchilarning hayotiy maqsadlarini belgilash, fikrlash, profilga eʼtibor va kasbiy oʻzini-oʻzi belgilash koʻnikmalarini rivojlantirish, oʻz-oʻzini bilish va oʻzini-oʻzi qadrlash koʻnikmalarini rivojlantirish, maktab oʻquvchilarining profil ifodalangan manfaatlarini qoʻllab-quvvatlash, hududiy mehnat bozorining oʻziga xos xususiyatlari, oʻquvchilarda ularni qiziqtiradigan faoliyat turlariga ijobiy munosabatni shakllantirish lozimligi koʻzda tutilgan.

Bugungi kunga kelib, erta kasbiy yoʻnalish muammosi dolzarbdir. Qobiliyatlarga, temperament va xarakterning psixologik xususiyatlariga, bolani tarbiyalash va unga mehnatning qadr-qimmatini singdirishga qarab, bolalarda kasblar, qiziqishlar va faoliyatning muayyan turlariga munosabati haqidagi bilimlar tizimi shakllanadi. Erta kasbga yoʻnaltirish psixologiyavapedagogikaning yangi yoʻnalishi boʻlib, uning maqsadi bolaning kasbiy dunyosiga hissiy munosabatini rivojlantirish, turli faoliyat va kasblarda oʻzining kuchli va qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatidir. Bunday bilimlarni olish bolada mehnat qobiliyatini rivojlantiradi. Turli kasbdagi kattalarning mehnatiga hurmat bilan munosabatda boʻladi. Uning dunyoqarashini kengaytiradi. Bolaning maʼlum bir kasbga qiziqish va moyilliklarini erta namoyon boʻlishiga hissa qoʻshadi. Yuqori sinf oʻquvchilarini turli kasb-hunarlar va ularning faoliyati bilan keng tanishtirish, dars jarayonlarining bir qismida kasb-hunar egalarini jalb qilgan holda oʻquvchilar bilan suhbat tashkil etish ham boʻljak jamiyat aʼzolarini qiziqishiga sabab boladi. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsam dars mashgʻulotlarining bir qismida oʻz ishining ustalari boʻlgan quruvchi, arxitektor, kulol, tikuvchi-dizayner, oshpaz, zardoʻzlar kasb-hunarlar haqida maʼlumot berib, oʻz qoʻllari bilan yaratgan ishlarini oʻquvchilar eʼtiboriga havola qilsalar hamda mehnat jarayonining qanchalar zavqli ekanini oʻquvchi shaxsiga tushuntirsalar boʻljak kasb-hunar egalarida kata tasavvur uygʻonadi va cheksiz muhabbat paydo qiladi.

Oʻquvchilarning kelajak hayotlarida muvaffaqiyatli va qoniqarli kasbga ega boʻlishlari, jamiyatning barqaror va taraqqiy topishiga hissa qoʻshadigan avlodlarni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega. Kasb-hunar tanlash — bu oʻquvchilarning hayotida hal qiluvchi bir qarordir, bu qarorda psixologik omillarning taʼsiri beqiyosdir. Har bir oʻquvchi shaxsiy qiziqishlarga, qobiliyatlariga va qiymatlariga ega, bu esaularning kasbiy tanlovlarini ancha taʼsirli qiladi. Psixologik yondashuvlar oʻquvchilarning oʻzlarini yaxshi tushunishlariga va oʻz qobiliyatlarini yanada samarali bajarishga imkon beradigan kasbni topishlariga koʻmaklashadi. Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish jarayoni murakkab va koʻp qirrali boʻlib, uning samaradorligi oʻquvchi individualligining, uning atrofidagi muhitning va mavjud ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarning psixologik dinamikalariga bogʻliq. Pedagoglar, psixologlar va ota-onalar tomonidan birgalikda yuqori saviyadagi kasb-hunarga yoʻnaltirishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir qator qarorlarni qabul qildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlarito'g'risida" 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-sonli qarori 12-bandiga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-11-sinf o'quvchilarini kasb hunarga o'qitish tartibi joriy qilinganligi hamda maktablarning 10-11-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash uchun 2022-2023- yillarda 10-sinflar, 2023-2024-yillarda 11-sinf o'quvchilari jalb qilinishi ta'kidlangan.

Umumiy o'rta ta'limning 10-11-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq maktab psixologi tomonidan o'quvchilarning kasbga qiziqishini aniqlash va ularni qiziqishi asosida kasb-hunarga yo'naltirish choralarini ko'rish aytilgan. Umumiy o'rta ta'limning 7-sinflari uchun kasbga doir interaktiv so'rovnomalarni o'tkazish ham belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni ijrosi yuzasidan, shuningdek, xalq ta'limi tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va o'quvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali pedagog kadrlarning mehnatini rag'batlantirish hamda o'z ustida doimiy ishlaydigan, o'zining o'qitish uslubiga va xalq orasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan o'qituvchilarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir qator qaror va tadbirlarni tasdiqladi.

Prezidentimizning "2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmonining 12-bandiga muvofiq Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi tashkil etildi. Moliya vazirligi tomonidan 2022-yilda Jamg'armaga Davlat budjetidan 300 mlrd so'm mablag' ajratildi., Jamg'armaning mablag'lari Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarga har oylik ustama to'lash, ilg'or xodimlarga bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirish, xalqaro va asosiy olimpiadaning respublika bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilarni tayyorlagan pedagog kadrlarga bir martalik pul mukofotlarini to'lash, malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarni saralash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsad qilindi. Jamg'arma daromadlarining 1 foizidan ko'p bo'lmagan qismini pedagoglarga ilg'or o'qitish metodikalari va innovatsiyalarga o'rgatish tizimini yulga qo'yish maqsadida tashkil etilgan metodik guruhlar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini qoplash shu jumladan, ushbu guruhlar tarkibiga jalb etilgan mutaxassislarni rag'batlantirish hamda ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda pedagog kadrlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va pedagogik mahoratini baholash tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash. yo'naltirishga ruxsat etildi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonni rivojlantirib uni dunyoga tanitish yoshlarimizning qo'lida. Biz yoshlarimizning kelajagini o'ylagan xolda hozirdan ularning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanishimiz hamda ehtiyojlarini qondirish, liderlik xususiyatlarini oshirish, chet tillarini o'rganishlarida ko'makdosh bo'lishimiz lozim. Kelajagimiz egalariga nima yaxshi-yu, nima

yomon ekanligini kichik yosh vaqtlaridayoq tushuntirish, qaror qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish kabi bir qator usul va uslublardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilm fan xabarnomasi. Ilmiy elektron jurnali. Yuqori sinf o'quvchilarining kasbga yo'naltirish jarayonini boshqarish. Parpiyeva N.

2. Tolipov O', Barakayev M. Sharipov Sh. Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni) – T.: TDIU, 2001.

3. Xudoyqulov X.J. Kasb ta'limda ekologik muammoning zamonaviy talqini. / Kasb-hunar ta'limi jurnali, №4 2016-yil.

4. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2021 yildagi 792-son qarori.

5. , O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori.